



Mazkur test spetsifikatsiyasining maqsadi ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalari agentligi tasarrufidagi maktablarga qabul jarayonida o'quvchining fizika fanidan bilim darajasini aniqlash, qabul imtihonida qo'llaniladigan test variantlari strukturasi va unga qo'yiladigan talablarni belgilashdan iborat.

### ● Fizika fani bo'yicha qabul imtihoni

Ixtisoslashtirilgan maktablarning 8-sinfni tugatgan o'quvchilar fizika fanidan Davlat ta'lim standarti bo'yicha ma'lum darajadagi kompetensiyalarga ega bo'ladi.

Ixtisoslashtirilgan maktablarning 9-sinfga o'quvchilarni qabul qilishda saralash imtihoni fizika fanidan test shaklida o'tkaziladi.

Fizika fani bo'yicha qabul imtihoni fan bo'yicha o'quvchilarning savodxonlik darajasini diagnostika qilishga mo'ljallangan topshiriqlardan iborat bo'ladi.

### ● Fizika fani bo'yicha qabul imtihoni materiallari qamrab olgan sohalar

Saralash imtihonining fizika fani bo'yicha test savollari umumta'lim maktablarning 7-8-sinflar mavzularini qamrab olgan.

1. Mexanik harakat haqida ma'lumotlar
2. Tabiatda kuch. Energiya
3. Issiqlik hodisalari
4. Optika
5. Elektr zaryad. Elektr maydon
6. Elektr toki
7. Elektr tokining ishi va quvvati
8. Turli muhitlarda elektr toki
9. Magnit maydon

### ● Qabul imtihonida diagnostika qilinadigan o'quv va aqliy faoliyat ko'rsatkichlari

Diagnostika ishi o'quvchilarning fizika fanlar bo'yicha quyidagi o'quv va aqliy faoliyat ko'nikmalarini nazorat qiladi.

Faoliyat turi	O'quv va aqliy faoliyat ko'nikmalari darajasiga qo'yiladigan talablar
Mulohaza	Jismlarning mexanik harakati, harakat turlari va harakatning sababini, jismlarning o'zaro ta'siri sababi haqidagi, og'irlik kuchi jismlarning ishqalanishi, deformatsiyasi turlari, impuls va uning turlari, mexanik ish va energiya, quvvat oddiy mexanizmlar, gidrostatik bosim va atmosfera bosimi, jismlarning suzish shartlarini biladi, ular haqidagi bilimlarni yodga oladi va bilishning jamiyat uchun amaliy ahamiyatini tushunadi
Qo'llash	Jismlarning mexanik harakati, harakat turlari va harakatning sababini, jismlarning o'zaro ta'siri sababi haqidagi, og'irlik kuchi jismlarning ishqalanishi, deformatsiyasi turlari impuls va uning turlari, mexanik ish va energiya, quvvat oddiy mexanizmlar, gidrostatik bosim va atmosfera bosimi, jismlarning suzish shartlari mavzularga oid amaliy masalalar yecha oladi.
Tahlil	Jismlarning mexanik harakati, harakat turlari va harakatning sababini, jismlarning o'zaro ta'siri sababi haqidagi, og'irlik kuchi jismlarning ishqalanishi, deformatsiyasi turlari impuls va uning turlari, mexanik ish va energiya, quvvat oddiy mexanizmlar, gidrostatik bosim va atmosfera bosimi, jismlarning suzish shartlari bo'yicha ma'lum bir ko'rinishdagi ma'lumotlarni boshqa ko'rinishda ifodalay oladi (bir birlikdan ikkinchi birlikka o'tkazish, grafiklarni bir ko'rinishdan boshqa ko'rinishga o'tkazish, grafikni jadvalga yoki jadvalni grafikka aylantirish) ma'lumotlarni tahlil va talqin qiladi hamda tegishli xulosalar chiqara oladi.

● Fizika fani o'quv dasturi mazmunining bo'limlar hamda o'quv va aqliy faoliyat ko'nikmalari bo'yicha qamrab olinishi

Bo'lim	Ta'lim komponentlari	Mulohaza	Qo'llash	Tahlil	JAMI
Mexanik harakat haqida ma'lumotlar	<ul style="list-style-type: none"> <li>To'g'ri chiziqli tekis harakatda tezlik va yo'l</li> </ul>			1	1
Tabiatda kuch. Energiya	<ul style="list-style-type: none"> <li>Massa va uning birliklari</li> <li>Zichlik va uning birliklari</li> <li>Bosim va uning birliklari</li> <li>Suyuqlik va gazlarda bosimning uzatilishi</li> <li>Tinch holatdagi suyuqlik bosimi</li> <li>Atmosfera bosimi</li> </ul>		1		1
Issiqlik hodisalari	<ul style="list-style-type: none"> <li>Ichki energiya</li> <li>Issiqlik miqdori</li> <li>Yoqilg'ining solishtirma yonish issiqligi</li> <li>Bug'lanish va kondensatsiya. Qaynash</li> <li>Qattiq jismning erishi va qotishi</li> </ul>		1		1
Optika	<ul style="list-style-type: none"> <li>Yorug'likning to'g'ri chiziq bo'ylab tarqalishi</li> <li>Quyosh va Oy tutilishi</li> <li>Yorug'likning qaytishi va sinishi</li> </ul>	1			1
Elektr zaryad. Elektr maydon	<ul style="list-style-type: none"> <li>Jismlarning zaryadlanishi</li> <li>Elektr zaryad</li> <li>Zaryadlarning o'zaro ta'siri. Kulon qonuni</li> <li>Elektr maydon</li> </ul>		1		1
Elektr toki	<ul style="list-style-type: none"> <li>Zanjirning bir qismi uchun Om qonun</li> <li>Iste'molchilarni ketma-ket ulash</li> <li>Iste'molchilarni parallel ulash</li> <li>Iste'molchilarni aralash ulash</li> </ul>		1		2
	<ul style="list-style-type: none"> <li>Elektr sig'imi. Kondensatorlar</li> <li>Kondensatorlarni parallel va ketma-ket ulash</li> </ul>		1		
Elektr tokining ishi va quvvati	<ul style="list-style-type: none"> <li>Elektr tokining ishi</li> <li>Elektr tokining quvvati</li> <li>Elektr toki ta'sirida o'tkazgichlarning qizishi</li> <li>Joul-Lens qonunining amaliy tatbiqlari</li> </ul>			1	1
Turli muhitlarda elekt toki	<ul style="list-style-type: none"> <li>Metallarda elektr tok</li> <li>Suyuqliklarda elektr toki</li> <li>Elektroliz. Faradeyning birinchi qonuni</li> <li>Faradeyning ikkinchi qonuni</li> <li>Elektrolizdan turmushda va texnikada foydalanish</li> <li>Vakuumda elektr toki</li> <li>Gazlarda elektr toki</li> <li>Elektr razryadlarning turlari va ulardan foydalanish</li> </ul>	1			1
Magnit maydon	<ul style="list-style-type: none"> <li>Tokning magnit maydoni</li> <li>Magnit maydonning tokli o'tkazgichga ta'siri</li> <li>Bir jinsli magnit maydonda tokli ramkaning aylanma harakat</li> <li>Magnit maydonda zaryadli zarraning harakati</li> </ul>		1		1
<b>JAMI</b>		<b>2</b>	<b>6</b>	<b>2</b>	<b>10</b>

● **Nazorat qilinadigan ko'nikmalar bo'yicha diagnostika ishi strukturasi**

<b>T/r</b>	<b>O'quv va aqliy faoliyat turi</b>	<b>Topshiriqlar soni</b>	<b>Ulushi</b>
1	Mulohaza	2	20%
2	Qo'llash	6	60%
3	Tahlil	2	20%
	<b>JAMI</b>	<b>10</b>	<b>100%</b>